OGAHIYNING “GULSHANI DAVLAT”ASARIDA SHAXS SIFATLARI TALQINI

Gavharbonu Otaboyeva
Urganch davlat universiteti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23297155

Annotatsiya. Mazkur maqolada Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning tarixiy asarlari, xususan, “Gulshani davlat” asaridagi ba’zi shaxsni tavsiflovchi sifatlar semantik jihatdan tahlil qilindi va sinonimlik masalasi yoritildi.

Kalit so‘zlar. Ogahiy, Navoiy, o‘zlashma qatlam, sinonimiya, semantik yuk, insoniy sifatlar, semantik guruh, leksik boylik.

Kirish

Tilshunoslikda shaxsning ichki va tashqi holatini, axloqiy fazilatlarini, ijtimoiy mavqesini aks ettiruvchi sifatlar insoniy sifatlar yoki shaxs xususiyatlarini bildiruvchi sifatlar deb ataladi. Bunday sifatlar tilning leksik boyligi doirasida muhim semantik qatlamni tashkil etadi. O‘zbek tilshunosligida bunday sifatlar semantik guruhlar asosida ajratilib, ko‘pincha axloqiy, ruhiy, estetik, ijtimoiy, aqliy kabi turlarga bo‘linadi [1].

Shaxs xususiyatlarini ifodalovchi sifatlar o‘zbek tilining turkiy ildizli va o‘zlashma qatlamlarida boy ko‘rinishda mavjud. Bu sifatlar Navoiy va Ogahiy kabi klassik adiblar ijodida keng qo‘llanilgan bo‘lib, ular inson obrazini yaratishda muhim vosita hisoblanadi. Jumladan, “ulug‘”, “fahmli”, “sohibqiron”, “mehruvash”, “ozodtab’”, “ehsonparvar” kabi sifatlar orqali obrazning ijtimoiy, axloqiy va ruhiy holati yoritiladi. Shu bilan birga, mazkur sifatlar sinonimik jihatdan ham boy. Masalan, “ulug‘” sifatining “kabir”, “azim”, “muhtaram”, “azamat” kabi sinonimlari bor. Bunday sinonimlar asar matnida leksik boylikni, uslubiy aniqlikni kuchaytiradi. Xususan, Ogahiyning “Gulshani davlat” asarida “sarafroz”, “muzaffar”, “farxunda”, “osuda”, “adolatli”, “ro‘ziroshan” kabi sifatlar inson fazilatlarini yoritishda muhim semantik yukni bajaradi.

Lingvistik nuqtayi nazardan, bu guruhga mansub sifatlarning sinonimiyasiga asosan semantik noziklik, uslubiy ekspressivlik, qadimiy-lisoniy qatlamlar o‘zaro munosabati asosida shakllanadi. Sifatlarning sinonimiyasi tilning poetik funksiyasini kuchaytirib, obrazning estetik qiyofasini yaratishda muhim rol o‘ynaydi[2].

Sig‘a olmayin ul ulug‘ dasht aro,
Bosibdur magar yer yuzini qaro (GD,90a)

Va taka xalqi aningdek qurg‘un va ulug‘ qo‘shunning barcha to‘pxona va asbob- u yarog‘ va xazina-yu dahinalarin tasarruflari xiytasig‘a kiyurdilar.(GD,232a)

Yeturgil kund ta’bimg‘a itiklik,
Taxayyul ichra fikrimg‘a biyiklik. (GD,4b)

Yuqoridagi baytlarda insonga xos bo‘lgan xususiyatlarni ifodalashda Ogahiy sifatlardan juda mohirlik bilan foydalangan. Jumladan, ulug‘, biyik, qurg‘un, katta kabi sifatlardan

[1] Qosimova D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
[2] Umaralievna K. Synonymous Features of Native and Borrowed Words in the Uzbek Language. OSF Preprints, 2, 296–300. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QZHNG

foydalanish orqali muallif bir-biriga yaqin ma’no anglatuvchi, ya’ni sinonim sifatlar vositasida obrazning salobat va buyukligini yanada ta’sirchanroq ochib bergan. “Sinonimlar bir-birini ma’nodosh so‘zlar sifatida almashtirsa-da, ularning uslubiy zaminlari, qo‘llanish kontekstlari va nutqiy vazifalari farqlanadi[3]” .

Ul mufsidlarning dashti ta’bisiga
Kirib qoldi ko‘nglum, ey ro‘zgor. (GD,28a)

Bu yerda “mufsid” so‘zi arabcha “fasād” ildizidan kelib chiqqan bo‘lib, “buzuvchi”, “halokatga olib boruvchi”, “axloqsiz” kabi salbiy ma’nolarga ega. Ogahiy mufsidlarni jamiyatdagi buzuvchi kuch sifatida ko‘rsatadi. Ularning “dashti ta’bisiga” ya’ni yovuz niyatlar maydoniga kirib qolgan ko‘ngil, majoziy ma’noda insonning axloqan zaiflashuvi, buzilish xavfi ostida qolgan holatini bildiradi.

Shahikim, erur munfarid zot anga,
Bari mosivo keldi mir’ot anga. (GD,1b)

Ogahiy bu so‘z orqali Allohning yagona ekanligini ifodalagan. Munfarid so‘zi arabiy qatlamga mansub bo‘lib, o‘zida "yagona" ma’nosini aks ettiradi. Bu sifat faqat Allohga xos bo‘lgan yakka va yagonaligini ta’kidlaydi, bu esa uning cheksiz yuksakligini ifodalaydi. Bundan tashqari, munfarid so‘zi o‘rnida **yagona** sifati ham ishlatilgan bo‘lib, bu sifat ham arabiy qatlamga mansubdir. Yagona [یگانه – yakka, bitta, birgina] bor-yo‘g‘i bitta, yakka-yolg‘iz; birdan bir, bitta-yu bitta[4]. Xayo u hilm aro Usmon nishona, Shijoatda Ali yanglig‘ yagona. (GD,6b)

Bu yerda yagona sifati hazrati Alining shijoatdagi ulug‘ligini, undagi yagona va betakror kuchni ifodalaydi. asarida munfarid va yagona sifatlarining ishlatilishi, nafaqat Allohni, balki insoniyatdagi ulug‘lik va shaxslardagi ijobiy xislatlarning yagonaligi, ya’ni shijoatli va hurmatga sazovor shaxslarni ifodalashda ham keng qo‘llaniladi. Bu so‘zlarning arabiy qatlamga mansub bo‘lishi, nafaqat lingvistik, balki madaniy va diniy kontekstda ham muhim ahamiyatga ega. Ogahiy bu sifatlarni yuqori badiiy ifodalar orqali ishlatib, asarning matniga yanada chuqur ma’no va mazmun kiritadi.

Shahikim, bo‘lub makrumat toj anga,
Maqomi danīy keldi mi‘roj anga. (GD,2b)

Ushbu baytda makrumat va danīy sifatlari o‘zaro zid ma’nolarni anglatish orqali badiiy-antitezali ifodani hosil qilgan. Makrumat so‘zi arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “karam”, “saxiylik”, “ehson”, “olijanoblik”, “ulug‘lik” kabi ma’nolarni bildiradi. Baytda makrumat toj deb Alloh bergan ulug‘lik, oliy martaba va saxiylik ramzi sifatida ishlatilgan. Bu yerda toj obrazining qo‘llanishi shaxsni ehtirom qilish, uning fazilatlarini ulug‘lash maqsadida tanlangan. Adabiyotshunos olimlar ta’kidlashicha, o‘zbek mumtoz she’riyati an’analarida makrumat so‘zi nafaqat saxiylik yoki ehson ma’nosida, balki inson fazilatlarini, komillik darajasini bildiruvchi yuksak sifat sifatida ham ishlatilgan. Danīy (arabcha دنیئ) so‘zi esa “pastkash”, “razil”, “tuban”, “yaramas” ma’nolarini bildiradi. Ogahiy bu so‘z orqali insonlarning tuban darajasi, ularning past fe’lligi yoki ijtimoiy mavqei past bo‘lgan holatini ifodalagan. Baytda bu so‘z shaxsning avvalgi past maqomidan yuqoriga, ya’ni oliy maqomga

[3] Rahmatullayev Sh. (1980). O‘zbek tilida sinonimiya. Toshkent: Fan. — 116-bet.
[4] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 116 b.

– mi‘rojga ko‘tarilganligini badiiy ifodalash uchun ishlatilgan. Ayniqsa, Navoiy asarlari matnida danīy so‘zi juda keng qo‘llangan bo‘lib, unda inson fazilatlaridagi manfiy xususiyatlarni ifodalashda foydalanilgan. Masalan, Navoiy asarida danīy so‘zi shunday kontekstdan o‘rin oladi:

Egri yo‘llar ko‘rguzub nafsi daniy
Solubon solubon gadoliqqa ani.
Ne qilur danīy agar podshoh bo‘lsa ham,
Ko‘ngli qora, ruxi g‘amgin bo‘lsa ham.

(Lisonut-tayr,38-17)

Bu kabi misralarda danīy so‘zi shunchaki ijtimoiy tabaqani emas, balki shaxsning ma’naviy tubanligini, axloqiy qusurlarini ham ifodalash uchun ishlatiladi. Mazkur sifatlarning arabiy qatlamga mansubligi, ularning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi semantik imkoniyatlarini yanada boyitgan. Shu bilan birga, Ogahiy bu so‘zlarni aniq va lo‘nda tasvir vositasi sifatida kiritib, badiiy nutqni yanada mazmunli va obrazli qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Umaralievna K. Synonymous Features of Native and Borrowed Words in the Uzbek Language. OSF Preprints, 2, 296–300. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QZHNG
3. Rahmatullayev Sh. (1980). O‘zbek tilida sinonimiya. Toshkent: Fan. — 118bet.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 116 b.